

**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI ALOQA, AXBOROTLASHTIRISH VA
TELEKOMMUNIKATSIYA TEXNOLOGIYALARI DAVLAT QO'MITASI
TOSHKENT AXBOROT TEXNOLOGIYALARI UNIVERSITETI**

“Axborot-kutubxona tizimlari” kafedrası

REFERAT

**Mavzu: “Kutubxonashunoslik fanining rivojlanishi tarixini davrlashtirish va
uni ta’riflash”**

Bajardi: AK 291-11 guruh talabasi
Arifxanova Sh.
Tekshirdi: Zulfikarov B.X.

Toshkent 2014

Kutubxonashunoslik fanining rivojlanishi tarixini davrlashtirish va uni ta'riflash

Fransiya Milliy Kutubxonasi misolida



Fransiya Milliy Kutubxonasi- dunyodagi fransuz tilidagi adabiyotlarga eng boy va Fransiya'dagi eng katta kutubxonalardan biri hisoblanadi. Tarixan Parijdagi riu-Rishelye da joylashgan. Xozirda bu kutubxona davlat kutubxonasining oz va qimmatbaho qismini saqlaydi, bular Medallar kabineti va manuskriptlar. Asosiy kutubxona saqlanadigan joy 13-okrugda qurilgan, ushbu to'rta baland minora Sena daryosini chap tarafida ochilgan kitob shakldia joylashgan va Fransua Mitterana nomi berilgan. Kutubxonada 2700 ta odam ishlaydi, ularda 2500 tasi butun kun.

Parij Milliy Kutubxonas har xil vaqtda, har xil nomga ega bo'lgan: qirollar, imperatorlar va milliy kutubxonasi; uzoq vaqt fransuz qirollarini shaxsiy kutubxonasi bo'lgan.

Fransiya Milliy kutubxonasini rivojlanish tarixini 7 ta davrga bo'lishimiz mumkin. Bular Fransiyanig bir nechta qirollarini boshqaruviga to'g'ri keladi:

1- davr Fransiyaning qiroli Karl V davriga, 1364-1380 yillarga to'g'ri keladi.

2 – davr Lyudovik XII boshqaruv davriga to‘g‘ri keladi (1498-1515)

3-davr Fransisk I boshqaruv davriga to‘g‘ri keladi(1515-1547)

4- davr Lyudovik XIV qirollik davriga to‘g‘ri keladi.

5- davr 1715-1774 yillarga to‘g‘ri keladi, Lyudovik XV boshqaruv davri.

6-davr fransiya revolyutsiyasi dari, ya’ni Fransiyani monarxiyadan respublika davlat ko‘rinishiga o‘tish davri.

7- davr 1988 yildan boshlab to hozirgi kungacha bo‘lgan davr.

Fransiya Kutubxonasiga asos slogan shaxs bu Karl V hisoblanadi, u kutubxonani shaxsiy maqsadi uchun emas balki, olimlarga ham ushbu kutubxonada ishlash imkonini berish maqsadida tashkil etdi. U nafaqat sotib olgan balki qo‘lyozmalarni qayta yozdirgan hamda ba’zi bir kitoblarni tarjima qildirgan. 1367-1368 yilda kutubxonani Luvr qasrining Sokolinnaya minorasiga ko‘chirgan. 1373 yilda katalogi tuzilgan, 1380 yilda esa to‘ldirilgan. Bu kutubxona qirol qarindoshlari kitobni olib qaytarib bermaganlari uchu qattiq shikastlangan. 1200 ro‘yxatdan bizgacha 20 ta qismi yetib kelgan xolos.

Keyingi davr Lyudovik XII boshqaruv davriga to‘g‘ri keladi. Lyudovik XII luvr kutubxonasini Bluas qasriga o‘tkazdi, uning buvasi va adasi Orlean gertsoglari tomonida yig‘ilgan kutubxonaga qo‘shishni buyurdi hamda Milan gertsoglari kitoblarini, Petrarka kutubxonasining qismini sotib oldi.

Uchinchi davr yana bir qirol Fransisk I davriga to‘g‘ri keladi. Byude kutubxonashunos olim bilan kelishilgan holda Fransisk I o‘zligisini shaxsiy kutubxonasini birlashtirishgan. Qirol kutubxonani kengaytirish uchun tirishqoqlik bilan xorijdan kitoblar keltirtirgan. 1523 yilda konnetabl Burbonskiyni musodara qilingan boy kutubxonasini Fontenbloga joylashtirishni buyuradi va shu yerda grek qo‘lyozmalar kutubxonasiga asos soladi. Uni boshqaruvi davrida qirol kutubxonas Yevropadagi boy kutubxonalardan biri hisoblangan. Fransisk I davrida qirol kutubxonasining bosh kutubxonachisi, yordamchilari va pereplyotchilari lavozimlari belgilangan.

Lyudovik XIV davrida qirol kutubxonasi juda ko‘p kitoblarni va qimmatbaho qo‘lyozmalarga ega bo‘lgan. Muhim ishlardan biri bu aka uka

Dyupyuilarni sovgʻ sifatida berilgan kitoblari(9000 ta jilddan iborat) va qoʻlyozmalar (260 ta), hamda Gaston Orleanskiyni sovgʻasi kitoblar, qoʻlyozmalar, medallar, miniatyuralar, rasmlar va boshqalardan iborat hamda garf de Betyun (de Bethune) ni tarixiy hujjatlar toʻplami 1923 ta jilddan iborat. 1715 yilda kutubxona Genyerni taniqli toʻplamiga ega boʻldi. Kolbyer Fransiyaning asosiy intendant (general-intendant yaʼni armiyani boshqaruvchisi, armiyani har tomonlama taʼminlanishiga javob beradigan shaxs) olimlarni chetga qimmatbaho kitoblarni qidirishga va olib kelishga yuborgan , shu sababli Sharqdan, Yunoniston, Misr, Erondan, Konstantinopoldan, Italiya, Portugaliya, Shvetsiya va boshqa mamlakatlardan qimmatbaho kitob va qoʻlyozmalar olib chiqib ketilgan.

Qirol Lyudovik XV davrida kutubxona 20 ta kitoblar va qoʻlyozmalarga ega boʻldi. Sharq bilan savdo sotiq kuchaygani uchun kitoblar sotib olish davom ettirilgan, 1723 yilda Fransiyaning Ost Indiya kompaniyasi 1800 ta xitoy kitoblarni yuborgan.

Fransiya revolyutsiyasi davrida kutubxona sanoqsiz kitoblar, qoʻlyozmalarga ega boʻldi. Keyinchalik eng katta kelib tushgan kitoblar toʻplami Labedoeyrni fransuz revolyutsiyasi haqidagi 10 000 ta kitob, Volter, Monten haqidagi toʻplamlar, 350 ta koreys tilidagi qoʻlyozmalar boʻldi.

Soʻnggi 1988 yildan boshlab toʻbizni kungacha boʻlgan davr. 1988 yilda kutubxonaning fondi 9 millionga yetib borgansi. Kutubxonani qayta tiklash dasturini Fransiya Prezidenti Fransua Mitteran qoʻllab quvvatladi. Bunda kutubxonaning asosiy fondi Parijni XIII okrugdagi zamonaviy toʻrtta balandparvoz binolariga koʻchib oʻtdi.



Bu binolar arxitektor Dominik Perro proyeksi hisoblanadi va to'rtta ochilib turgan kitob shaklida qurilgan. Xozirgi kunda kutubxonada 10 mln dan ortiq jildlar saqlanadi.